

# MATNLARNI TAHLIL QILISH USULLARI. MA'LUMOTLARNI VIZUAL TAHLIL QILISH

**Oxunjonov Shahriyor Nazirzoda**

*Farg'ona davlat universiteti, talabasi*

**Ibragimov Shavkat Mamirovich**

*Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada vizual tahlil qilishning kelish chiqish asoslari, rivojlanish bosqichlari hamda o'ziga xos xususiyatlari tarixiy faktlar asosida muhokama etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Vizual tahlil, kompyuter, texnologiya, metod, matn, rasm.*

## KIRISH

XXI asr - yuqori kompyuter texnologiyalari asri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanib borishi bilan, barcha fan sohalarida bo'lganidek, tarix fanida ham tadqiqot va izlanishlar olib borishning yangi manbalari va usullari shakllandi. Vizual materiallarni o'rganish, shuningdek, o'rgatish jarayonini osonlashtiradigan raqamli texnologiyalar tobora rivojlanib bormoqda. Fanda raqamli manbalar - bu, raqamli texnologiyalar vositasida saqlanadigan, tashiladigan va oson tarqatilish imkonini beradigan barcha turdagi - vizual antropologiya misolida vizual materiallar to'plami tushuniladi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish yordamida tadqiqotlar davomida qamrab olinadigan ma'lumot hajmini keskin ko'paytirish, axborot olish va uzatishning o'qib-tushunish usuliga qo'shimcha ko'rib-kuzatish usulidan hamfoydalanish asosida osonlashtirish mumkin bo'ladi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Tarixning vizual antropologiya yo'nalishida raqamli texnologiyalar keng qo'llaniladi. Vizual antropologiya – o'z nomidan vizual materiallar asosida tarixiy voqea-hodisalarni o'rganishga asoslangan bo'lib, bunda fotosuratlar, videomateriallar asosiy tadqiqot predmeti sifatida olinadi. Bu yo'nalish nisbatan yangi paydo bo'lsa-da, bir qatorda raqamli texnologiyalarning ilk avlodlari shakllanishi bilan parallel ravishda rivojlanmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, antropologiya fanida vizual materiallardan keng foydalana boshlangan. Oxirgi o'n yilliklarda tadqiqotchilar vizual materiallarga manba sifatida murojaat qilishmoqda. XX asr o'rtalarigacha vizual antropologiya faqat aborigen xalqlar madaniyatini o'rganish bilan chegaralandi. Bu yo'nalishda tadqiqot olib borgan mashhur olimlar M. Mid va G. Beytson 1952 yilda "Balida trans va raqslar" nomli film yaratdilar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tarixiy asarlarga ishlangan turli mavzudagi miniatyuralar Sharqni, xususan, Markaziy Osiyoni vizual o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Kitoblarga



ishlangan tasviriy san'at asarlarining aksariyatida garchi saroy hayoti, jang maydoni yoki hukmdor va shahzodalarning ov marosimi tasvirlangan bo'lsa-da, masalan, ularning ichida saroy ayollari yoki ayollarning turli bazmlari, shuningdek, bozor va turli tadbirlardagi ayollar tasviri ham uchraydi. Ular orqali o'sha davr ayollarining qiyofasi, kiyinish, mashg'uloti, madaniy turmush tarzi, erkak va ayol o'rtasidagi munosabatni o'rganishimiz mumkin.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston xotin-qizlarining ijtimoiy hayoti haqida tasavvur hosil qilishda vizual manbalar ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Mazkur davrga xos vizual manbalar mahalliy kishilar hamda keyinchalik o'lkaga kelgan rossiyalik va yevropaliklar tomonidan yaratilgan. Jumladan, "Ash'ori nisvon" kitobida Ibrohim Davron chizgan bir nechta realistik suratlar mavjud. Shulardan biri "Bir shoirai najiba" surati bo'lib, bu bir shoiraning chindan ham suratimi, bunisi aytilmagan, lekin tashqi va ichki go'zallikni o'zida jamlagan ayol surati aks etgan. Kitobda bundan tashqari "Hasratli shoira", "Xayol olamida", "Kitob o'qib yig'lagan xotin", "O'sh (Imom ota vodiysida) bir shoiraning mozori", shoira Nozimaning "Ohangi oshiqona" sarlavhali she'ri mazmuniga qarab chizilgan "G'ijjak ushlagan qiz" surati bor[1].

Bu davrda voqea va hodisalarni, dunyoni fiksatsiya qilib qo'yishning yangi shakli sifatida analog fotosuratga olish vujudga keldi. O'lka hayotiga fotosuratlar kirib kelishi bilan undan xotin-qizlar ham chetda qolmadi. Ular ham turli holatlarda suratga tusha boshladilar. Endi ularni miniatyuralarda chizibgina qolmay, suratlarga olish ham paydo bo'ldi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida surat (fotografiya) mustamlakachilik qarashini o'zida aks ettirgan, chunki suratlarni o'lkada o'z maqsad va qarashlariga ega bo'lgan rusiyabon kishilar olgan edi. Mustamlaka hududning suratlardagi eng to'liq obrazi "Turkiston albomi"da yaratilgan edi[2]. Turkiston birinchi general-gubernatori general Konstantin Petrovich fon Kaufman (1818-1882 y.) buyrug'iga asosan tayyorlangan "Turkiston albomi"dan 1200 dan ortiq surat, shuningdek, arxitektura loyihalari, akvarelda chizilgan rasm va xaritalar o'rin olgan. 1871-1872 yilda tayyorlangan mazkur to'plam 4 qism va 6 tomndan iborat bo'lib, "Arxeologiyaga oid qism" ikki tomni, "Etnografiyaga oid qism" 2 tomni, "Hunarmandchilikka oid qism" 1 tomni va "Tarixga oid qism" 1 tomni tashkil etgan. Albomning arxeologiya va etnografiyaga oid qismini sharqshunos olim A.L.Kun tayyorlagan. Hunarmandchilikka doir materiallarni agronom M.I.Brodovskiy va botanik I.I.Krauze, bo'yoqchilikka doir materiallarni V.P.Ivanov, harbiy tarixga oid materiallarni tayyorlashda rotmistr M.A.Terentev va boshqalar ishtirok etdi. "Turkiston albomi" suratlari N.N.Nexoroshev tomonidan bajarilgan.

"Turkiston albomi"ga kirish so'zini yozgan A.L.Kun uning maqsad va vazifalari haqida quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Rus qo'shinlari mamlakatni egallaganicha Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan, Qo'qon va Buxoro xonliklari tasarrufidagi yerlar haqida juda cheklangan ma'lumotga ega edik.... Rus qo'shinlari Yevropa



сivilizatsiyasi uchun O‘rta Osiyoning katta qismini ochib berdi. Toshkentning, undan keyin Samarqandning bosib olinishi o‘lkaga juda katta qiziqish bilan qarayotgan rus tadqiqotchilariga O‘rta Osiyo bilan har tomonlama tanishish imkonini yaratdi. Umumiy qiziqishni qoniqtirish va o‘quvchilarni qo‘shib olingan hududlar bilan tezlikda tanishtirish maqsadida Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman buyrug‘iga binoan boshqa tadbirlar kabi suratlar albomi tashkil etildi. Albomning asosiy vazifasi quyidagilarni yaqqol ko‘rsatish edi: 1) o‘lkada saqlanib qolgan qadimiy yodgorliklarni (arxeologiya qismi); 2) aholining zamonaviy hayotini – tiplari, diniy qarashlari, urf-odatlarini, kiyimlari va turar joylari (etnografiya qismi); 3) o‘lkaning sanoat, hunarmandchiligi (hunarmandchilikka oid qismi) va 4) Rossiya imperiyasining harbiy harakatlari o‘tgan joylar va O‘rta Osiyoga yo‘l ochgan shaxslar portreti (tarixiy qism)”[3].

“Arxeologiyaga oid qism”ning birinchi tomida Sirdaryo viloyatining tarixiy obidalari, shaharlar, ularning ko‘rinishiga oid suratlar o‘rin olgan. Ikkinchi tomi esa, asosan, Samarqandning qadimiy obidalari tasvirlangan suratlar va rasmlardan iborat.

“Hunarmandchilikka oid qism”da esa shahar aholisining, asosan, savdogarlar va hunarmandlarning hayoti tasvirlangan suratlar o‘rin olgan. “Tarixga oid qismi”da rus generallari, zobitlari suratlari berilgan, ayniqsa, O‘rta Osiyoni bosib olishda muhim o‘rin tutgan, ordenlar bilan mukofotlangan zobitlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Bundan tashqari, janglar o‘tgan joylar surati ham berilgan.

Vizual manbalardan (kinohujjatlar, telehujjatlar, video yozuvlar, foto suratlar) foydalanishda tadqiqotchilar kuzatish usulidan foydalanadi. M.Blok tarixni vizual o‘rganish imkoniyatlari haqida fikr yuritib, “o‘tmish izlarini... to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish imkoniyati mavjuddir. Bu yozma bo‘lmagan va hatto aksariyat yozma manbalardir”[5], degan edi. Tadqiqotchilar kinohujjatlar bilan ishko‘rganda ularning sahna uchun ishlangan jamoaviy ijod ekanini e‘tiborga olishi lozim. Oxirgi yillarda kinohujjatlar bilan birga videohujjatlar ham paydo bo‘la boshladi, ular alohida shaxslar tomonidan suratga tushirilib, voqelikni real tasvirlashi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham bunday hujjat muhim tarixiy ahamiyatga egadir.

Vizual manbalardan biri reklama bo‘lib, ayniqsa, dunyoda gazetalar paydo bo‘lishi bilan reklama keng yo‘lga qo‘yila boshlagan edi. Turkistonda matbuot orqali reklama va e‘lonlar berishni o‘lkaning to‘ng‘ich gazetasi bo‘lgan «Turkestanskije vedomosti» gazetasi boshlab berdi. Bu gazeta nashr qilina boshlanganidanoq o‘z sahifalarida davlatga qarashli va xususiy e‘lonlar berib bordi. Vaholanki, dunyo bo‘ylab chiqa boshlagan matbuot organlari o‘z gazetalarini tarqatish hamda reklama va e‘lonlar hisobiga faoliyat yuritir edilar. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida dunyoning deyarli barcha davlatlarida matbuot organlari moliyaviy tomondan shunday ta‘minlanar edi.

Shuni ta‘kidlash joizki, XIX asrning oxirida «Turkestanskije vedomosti» gazetasida berilgan e‘lonlar ichida o‘lkaning ijtimoiy- iqtisodiy hayotiga kirib kelayotgan yangi texnika va texnologiyalarreklamasi alohida o‘rin tutgan. Masalan,



gazetada yozuv mashinalari, velosipedlar, tikuv mashinalari reklamalari paydo bo'la boshlaydi. XX asrning boshidan esa gazeta sahifalarida turlicha texnika vositalari, mashinalar, uskunalar reklamasi berila boshlaydi. Bu reklamalarning ko'pchiligiga illustrasiyalar (rasmlar) va tavsiflar ilova qilingan. Masalan, «Undervud» yozuv mashinasining reklamasida dunyo ko'rgazmalarida (tez yozish bo'yicha) bu mashinaning bir necha bor oltinmedalga sazovor bo'lganligi ta'kidlanadi [6].

### XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, vizual tadqiqotlarda turli vizual manbalardan, jumladan, surat, rasm, reklama, plakat, karikatura, arxitektura ob'ektlari, kinohujjat kabi manbalardan faqat illustrasiya sifatida foydalanmasdan, ularni tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganiladi hamda vizual tadqiqotlarda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyati mavjuddir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mamasidiqova, I., Husanova, O., Madaminova, A., & Tojimatov, I. (2023). DATA MINING TEXNALOGIYALARI METODLARI VA BOSQICHLARI HAMDA DATA SCIENCE JARAYONLAR. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(3 Part 2), 18-21.
2. Tojimatov, I. N., Mamalatipov, O. M., & Karimova, N. A. (2022). SUN'IY NEYRON TARMOQLARINI O'QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 191-203.
3. Nurmamatovich, T. I. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOTNING GLOBALLASHUV JARAYONIDA IQTISOD TARMOQLARIDA QO'LLANILISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI. *НЗ4 Наука и инновации в XXI веке: Материалы Международной*, 291.
4. Tuychievich, B. M., & Nurmamatovich, T. I. (2021). ЖАМИЯТДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ. *НЗ4 Наука и инновации в XXI веке: Материалы Международной*, 189.
5. Kizi, A. Z. I., & Nurmamatovich, T. I. (2021). ZAMONAVIY DASTURLASH FANINI O'QITISHDA PYTHON DASTURLASH VOSITALARI YORDAMIDA AMALIY DASTURLAR YARATISHNING AHAMIYATI. *НЗ4 Наука и инновации в XXI веке: Материалы Международной*, 264.
6. Tojimatov, I. N., Mamalatipov, O. M., & Karimova, N. A. (2022). SUN'IY NEYRON TARMOQLARINI O'QITISH USULLARI.
7. Abdulaxadov, N., Saminjonov, S., & Tojimatov, I. (2023). MA'LUMOTLAR VA AXBOROTLARNI VIZUALIZATSIYA QILISH USULLARI, INTERAKTIV MEKANIZMLAR. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(4), 7-18.



8. Tojimatov, I., Mirkomil, M. M., & Saidmurod, S. (2023). BIG DATANING TURLI SOHALARDA QO 'LLANILISHI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(6), 61-65.

9. Tojimatov, I., & Doniyorbek, A. (2023). KATTA HAJMLI MA'LUMOTLAR AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(6), 66-70.

10. Tojimatov, I., & Xurshidbek, R. (2023). KATTA HAJMLI MALUMOTLARNI QAYTA ISHLASHDA QOLLANILAYOTGAN TECHNOLOGIYALAR: NOSQL, MAPREDUCE, HADOOP, ERP, SAP NOSQL TECHNOLOGIYASI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(6), 54-60.

11. Abdusalomovna, T. D. (2023). TEXT MINING. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 13, 284-289.

12. Ne'matjonov, F. F., Jahongirova, J. J., Murodov, B. S., & Tojimatov, I. N. (2023). CREATE DATA CUBE WITH MS EXCEL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(03), 77-86.

13. Kimyonazarova, D., Ne'matjonova, D., Ergasheva, B., & Tojimatov, I. (2023, March). KATTA MA'LUMOTLAR BILAN ISHLASHDA HADOOP ARXITEKTURASI. In *Международная конференция академических наук* (Vol. 2, No. 3, pp. 96-99).

14. Tojimatov, I., & Doniyorbek, A. (2023). KATTA HAJMLI MA'LUMOTLAR AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(6), 66-70.

15. Tojimatov, I., Mirkomil, M. M., & Saidmurod, S. (2023). BIG DATANING TURLI SOHALARDA QO 'LLANILISHI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(6), 61-65.

16. Abdulaxadov, N., Saminjonov, S., & Tojimatov, I. (2023). MA'LUMOTLAR VA AXBOROTLARNI VIZUALIZATSIYA QILISH USULLARI, INTERAKTIV MEKANIZMLAR. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(4), 7-18.

17. Ne'matillayev, A. H., Abduqahhorov, I. I., & Tojimatov, I. (2023). BIG DATA TECHNOLOGIYALARI VA UNING MUAMMOLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 19(1), 61-64.

18. Tojimatov, I. N., Topvoldiyeva, H., Karimova, N., & Inomova, G. (2023). GRAFIK MA'LUMOTLAR BAZASI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(4), 75-84.

19. Tojimatov, I. N., Mamalatipov, O., Rahmatjonov, M., & Farhodjonov, S. (2023). NEYRON TARMOQLAR. *Наука и инновация*, 1(1), 4-12.

20. Qodirjonova, N., Tursunova, N., Parpiboyev, N., & Tojimatov, I. (2023). BIR KOMPYUTERDA KATTA MA'LUMOTLAR BILAN



ISHLASH. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(4), 104-111.

21. Tojimamatov, I. N., Mamalatipov, O., Rahmatjonov, M., & Farhodjonov, S. (2023). NEYRON TARMOQLAR. *Наука и инновация*, 1(1), 4-12.

22. Onarqulov, M., Yaqubjonov, A., & Yusupov, M. (2022). Computer networks and learning from them opportunities to use. *Models and methods in modern science*, 1(13), 59-62.

23. Karimberdiyevich, O. M., Mahamadamin o'g'li, Y. A., & Abdulaziz o'g'li, Y. M. (2023). MASHINALI O'QITISH ALGORITMLARI ASOSIDA BASHORAT QILISH USULLARINI YARATISH. *Journal of new century innovations*, 22(2), 165-167.

24. Mamirovich, I. S. (2022). Finlyandiya Va O 'zbekistonda Ta 'Lim Tizimini Sifatini Solishtirma Taxlili. *Miasto Przyszłości*, 29, 347-350.